



## O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI.

**Karakulova Umida Abduvakilovna**

*O'zMU Jizzax filiali "Oila psixologiyasi"  
kafedrasi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola o'smirlarlik davriga xos bo'lgan deviant xulq-atvor haqida qarashlar, ularning ko'rinishlari va nomoyon bo'lish shakllari, rivojlanish shart-sharoitlari va oldini olish chora-tadbirlari haqida.*

**Kalit so'zlar:** *O'smirlik davri, o'g'irlik, deviant, xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, bolalar va o'smirlar suitsidi, o'z-o'ziga baho berish, mardlik, jasurlik, jinoiy faoliyat, agressiya, genetik moyillik*

Psixologiyada deviant xulq tushunchasi Emil Dyurkgeymning izlanishlari tufayli paydo bo'ldi. U og'ish nazariyasining asoschisidir. Boshida deviant xulq tushunchasi ba'zi xulq og'ishishlarini anglatardi. Ammo asta-sekin, deviant xulq tushunchasiga izchilroq yondoshila boshladilar. Bu g'oya Emil Durkgeym izdoshi Robert Merton tomonidan o'z asarlarida to'ldirilgan va rivojlantirilgan. Olimning ta'kidlashicha, har qanday holatda ham deviant xulq-atvor rivojlanishi, o'z ustida ishlamaslik va yaqin atrofdagilarga foyda keltirishni istagi yoqligi bilan bog'liq.

V. D. Mendelevich takidlashicha deviant xulq- jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zid keladigan va aqliy jarayonlarning nomutanosibligi, buzuqlik, o'zini o'zi namoyon etish jarayonining buzilishi va o'z xatti-harakati ustidan axloqiy va estetik nazoratni buzishdan kelib chiqadigan harakatlar yoki individual harakatlar tizimi. L.S.Vigotskiy fikricha, "O'g'ishgan xulq" o'smirning qiyin xayotiy munosabatlar xarakterining yig'indisidir.

Ijtimoiy psixolog G.M. Andreyeva deviant xulq nomoyon bo'lishida ijtimoiylashuvni quyidagicha tar'riflagan. Ijtimoiylashuv bolalarning ijtimoiy me'yorlik va qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonini qamrab olgan, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni individ uchun bolalikda, ayniqsa, zarur bo'lsada, bu jarayon uning butun umri bo'yi davom etadi. Birorta ham inson o'ziga boshqa insonlarning o'tkazadigan ta'sirisiz mavjud bo'la olmaydi va bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda ifodalanadi.

Respublikamiz olimlari ham o'smirlar orasidagi deviant xulq muammolariga o'z ilmiy ishlarida murojaat qilganlar. A.I.Ostrovskiy, Sh.A.Isroilov, O'.Q.Tolipov, Yu.M.Asadov, S.Fayziev, K.Normatov, D.Sharipova, G.Xudoyarova, G.T.Yadgorova, O.U.Avloevlar o'z ilmiy izlanishlarida deviant xulqli o'smirlar xulq-atvoriga xos salbiy illatlarning oldini olish, unga qarshi kurashish, ularni qayta tar-biyalashning psixologik, pedagogik, huquqiy masalalarini o'rgangan





O'smirlik yoshi – uning dunyoqarashi, e'tiqodi, nuqtai nazari, prinsiplari, o'zligini anglashi, baholashi va hokazolar shakllanadigan davr sanaladi. Afsuski tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki so'ngi yillarda o'smirlar o'rtasida deviant xulq-atvor ko'rinishlari ko'p uchramoqda. Ko'pincha o'smirlik boshlanish vaqti 12-13 yoshda ilk uchqunlari namoyon bo'ladi. Bu yosh hali ham dunyoni bolalarcha idrok etadigan, biroq o'ta taqlidga beriluvchan eng xavfli yoshdir, ayni paytda o'zini kattalar sifatida ko'rsatishga bo'lgan cheksiz istagi paydo bo'ldi. Bolalar odatdagidek harakat qilsalar ham, bu davrda bolani nazoratsiz qoldirmaslik kerak. Musiqa va kiyinishdagi imtiyozlarning o'zgarishi, shuningdek, qo'pollikning birinchi ko'rinishlari tashvish beruvchi signal bo'lishi mumkin. Agar o'z vaqtida tarbiyaviy choralar ko'rilmasa, bu quyidagi oqibatlariga olib kelishi mumkin:

- uydan qochish va sarsonlik;
- chekish, shuningdek spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish;
- o'g'irlik;
- “yomon” guruhlarga birlashish;
- jinoiy faoliyat;
- ekstremistik g'oyalarga ishtiyoq;
- erta jinsiy faoliyat;
- hayot uchun xavfli sevimli mashg'ulotlar.


O'smirlarning salbiy va ijobiy deviant xatti-harakatlariga ma'lum misollar mavjud. Birinchisi bilan hamma narsa aniq bo'lsa-da, ko'pchilik ikkinchisini oddiy ko'rinish sifatida qabul qiladi. Bu o'qish yoki jismoniy rivojlanishda ortiqcha harakat haqida bo'lishi mumkin. Ushbu harakatlar ijobiy ma'noga ega bo'lishiga qaramay, sevimli mashg'ulotlar tengdoshlari bilan muloqot o'rnini bosolmaydi. Eng keng tarqalgan misollar og'zaki tajovuz (qo'pollik, qo'pollik va qo'pollik), shuningdek, jismoniy hujum (urish, tishlash yoki itarish). Ushbu hodisaning o'ziga xos sabablari bor, ularning asosiylari quyidagilar:

– Agressiyaga genetik moyillik, bu yaqin qarindoshlardan yuqadi. Eshitish va ko'rishning buzilishi, aqliy va jismoniy zaiflik, ruhiy kasalliklar bilan bog'liq kasalliklarga alohida e'tibor qaratish lozim.

– Bola psixikasiga tashqi stimullarning ta'siri. Buning sababi oiladagi keskin vaziyat, tengdoshlar bilan nizolar, o'qituvchilarning tarafkashligi bo'lishi mumkin.

– Fiziologik nuqsonlar (nutq yoki tana) ko'pincha boshqalarning va ayniqsa bolalarning masxara va salbiy munosabatiga sabab bo'ladi. Bu bolaning o'zini past baho berishiga olib keladi, bu esa tajovuzkorlikning asosiy sabablaridan biriga aylanadi.

O'smirlik davriga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan yana biri ular o'zlaricha katta yoshdagi kishilar orasidan, yoxud badiiy asarlar, filmlardan ideal topishga harakat qilishadi. Ko'p hollarda ular idealning tashqi ko'rinishi ya'ni qiziqtiradigan,





o'zini tortadigan tomonlariga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, ularda tasavvurga nisbatan emotsiya kuchliroq bo'ladi. Demak, o'smirlarning ideal tanlash jarayoniga ham kattalar, ayniqsa ota-onalar beparvo bo'lmasliklari zarur. Chunki, o'smirlardagi deviatsiya xodisasining yuz berishida ayni hissiyot bilan bog'liq bo'lgan xususiyat sababchi bo'ladi. Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni qiyin o'smir yoki qiyin tarbiyalanadigan o'smir deyishadi. Qiyin tarbiyalanish deganda pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. O'smirning qiyin tarbiyalanishi, jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yor va qoidalarga amal qilinmasligini fanda deviatsiya hodisasi orqali o'rganiladi. Deviatsiya ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri bo'lib, ijtimoiy sohada o'zgaruvchanlik, insonning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini aks xulqatvorida o'z ifodasini topadi. Bundan kelib chiqadiki, me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorni jamiyat rivoji va svilizatsiyasini bola shaxsiyatining xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida buzilishiga olib keluvchi bolaning jamiyat bilan munosabati sifatida tushunish mumkin.

Deviant xulqli o'smirlarning xulqini o'zgartirish murakkab, ular ijobiy o'zgartirishlarga turlicha qarshilik bildirishadi. Shuning uchun deviant xulqli o'smirni qayta tarbiyalash uchun ularda ijobiy tomonga o'zgartirishni xohlash tuyg'usini uyg'otish juda muhim. Ijobiy o'zgarishlarni istash hissini uyg'otish, uni rivojlantirish uchun psixologik maslahatlar, treninglar katta ahamiyatga ega. Shuningdek, deviant xulqning ayanchli oqibatlari haqida gapirish ham darkor. Deviant xulqli o'smirni o'z qilmishlarining yomon oqibatlari haqida iqror bo'lishga undash ham profilaktik ishlarning bir qismidir. Agar bunga o'smir rozi bo'lmasa, deviant xulqning ayanchli oqibatlari ta'sirini atrofdagi odamlar misolida tahlil qilish mumkin.

Deviant xulqli farzandi bor oila a'zolarinig o'zaro munosabatlarida rad etilganlik va befarqlik kabilar ko'proq ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarining ko'rsatishicha, ota-ona orasidagi doimiy nizolar, urush-janjallar, o'zaro xusumat, shuningdek, mustahkam bo'lmagan nikoh deviant xulqida yoshligidanoq o'z asoratlarini ko'rsatadi. Bunday ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy tarbiyasiga, ularga nisbatan kam e'tibor beradilar. Ayni vaqtda farzandlar tomonidan ham shunday munosabat kuzatiladi. Ushbu holatlar sof psixologik nuqtai nazaridan etibor berilsa xar qanday xuquqbuzarlik, xar qanday jinoiy faoliyatning alohida turi sifatida talqin qilinadi. Bunda inson ijtimoiy faolligini belgilovchi va o'ziga hos qonunbuzarlik shaklida ifodalovchi uning psixik holati, shaxsning motivatsion jabxasi, individual psixologik sifatleri, psixologik hususiyatlari, sub'yektning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatlarida o'z ifodasini topadi. O'smirlik davriga xos deviant xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o'smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy me'yorlarni tan olmasligi, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Xulq-atvorida buzilishlari





bo'lgan o'smirlarning psixik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berishi sir emas. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablarni tadqiq qilish, oilaning farzand tarbiyasidagi o'rnini o'rganish alohida yondashuvni talab etadi.

Zero, yildan-yilga o'smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar - ularning intellektual, xissiy, irodaviy rivojlanishida ham orqada qolish holatlari ortib borayotganidan dalolat bermoqda. Hozirgi davrda o'smirlikka xos deviant xulqining shakllanishida oilaning ta'sirini o'rganishga e'tibor ortgan. Zamonaviy psixologiya fanlarida ushbu muammoga bag'ishlangan tadqiqotlarning o'rnini salmoqlidir. Ammo, bizningcha, tarbiyasi «qiyin» o'smirlarning shakllanishida oilaviy muhitning qay darajada o'rin egallashi va oiladagi nizolarning ta'sirini o'rganish dolzarbligi oshib bermoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yoshlarda deviant xulq va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o'rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e'tibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida farzandlarga diniy tarbiya berish, e'tiqodini mustahkam qilish, ularda har qanday xulq og'ishi ko'rinishi diniy tarafdin ham, dunyoviy tarafdin ham salbiy oqibatlariga olib kelishini tizimli tushuntirish, mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san'at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak.

Zero, shaxsdagi ichki “men” ning atrof-muhit, jamiyat va yaqinlari tomonidan munosib ravishda rag'batlantirilmasligi o'ziga bo'lgan bahosining tushib ketishiga, “tan olinish” ehtiyojining qondirilmasligiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, shaxs tomonidan boshqa yo'llar bilan “o'zini namoyon etish” istagini vujudga keltiradi. Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o'rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e'tibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevish va sevimli bo'lishga qobiliyatni rivojlantirish, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san'at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. G'oziyev E. G' "Psixologiya". T. 2008 yil.
2. G'oziev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". Noshir taxriri ostida T. 2020 yil.
3. G'oziyev E.G'. "Yosh davrlar psixologiyasi". T.: O'qituvchi, 1994 yil.





4. Karakulova U.A “O’smirlar xulq atvori shakllanishiga oilaviy munosabatlarning o’rni” O’zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg’unligi jurnal T. 2021 yil.

5. Karakulova U.A “Axborot savodxonligi va axborot izlash xulq-atvoridagi psixologik omillar”. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya. Oktyabr 2022 yil

6. Менделевич В.Д. “Психология девиантного поведения”. М.:2016 yil

7. Shoumarov G’, Umarov B, Akramova F. “Yoshlarda xulq og’ishi va tarbiya buzilining oldini olish bo’yicha psixologik maslahatlar”. Toshkent.:2015 yil

